



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MARKAZIY BANKI

TAHLILIIY SHARH

JISMONIY SHAXSLARNING VALYUTA OPERATSIYALARI

2026-YIL I YARIM YILLIGI

Global tendensiyalar, pul o'tkazmalari va valyuta ayirboshlash operatsiyalari tahlili




TOSHKENT — 2026

I. Transchegaraviy pul o'tkazmalari va global migratsiyadagi trendlar

2026-yilning yanvar-iyun oylarida chet eldan O'zbekistonga **kelib tushgan** pul o'tkazmalari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 13 foizga (1,1 mlrd doll) ko'payib, 9,3 mlrd dollarni tashkil qildi (1-diagramma).

1-diagramma. 2025-2026 yillarda kelib tushgan xalqaro pul o'tkazmalari hajmi, mlrd dollar



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

2026-yilning I-yarim yilligida O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari hajmining o'sishiga mehnat muhojirlari ishlaydigan an'anaviy mamlakatlarda ishchi kuchiga talab va ish haqlarining nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishi bilan bir qatorda, milliy valyuta kurslarining yil boshiga nisbatan mo'tadil tebranuvchanligiga qaramasdan, umumiy mustahkamlanishi ta'sir qildi.

Rosstat ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning I choragida Rossiyada o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 106,9 ming Rossiya rublini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan nominal ifodada 15,1 foizga, real ifodada esa 8,7 foizga oshgan.

Rossiya Bankining kunlik rasmiy valyuta kurslari asosidagi hisob-kitoblarga ko'ra, 2026-yilning I-yarim yilligida Rossiya rubli AQSH dollariga nisbatan 2025-yilning mos davri bilan taqqoslaganda o'rtacha 13,5 foizga mustahkamlangan.

AQSH Mehnat statistikasi byurosi ma'lumotlariga ko'ra, iyun oyida xususiy sektorning qishloq xo'jaligidan tashqari tarmoqlarida (non-farm payrolls) band bo'lgan xodimlarning o'rtacha soatlik ish haqi 13 sentga yoki 0,3 foizga oshib, 37,6 dollarni tashkil etdi. Yillik hisobda o'rtacha soatlik ish haqi 3,5 foizga oshgan.

Tashqi mehnat migratsiyasi geografiyasida diversifikatsiya jarayonlari davom etib, bu rivojlangan mamlakatlardan O'zbekistonga kelib tushgan transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmlari o'sishida namoyon bo'ldi.

Migratsiya agentligining ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonning tashkiliy tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha 23 ta davlat bilan 48 ta, shundan, 2025-2026-yillarda 14 ta davlat bilan 18 ta hukumatlararo va idoralararo hamkorlik kelishuvlari tuzilgan, 36 ta davlatning 325 dan ortiq yirik ish beruvchilari va rekruting kompaniyalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan.


Germaniya, Britaniya, Italiya, Ispaniya, Shvetsiya, Fransiya, Bolgariya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Serbiya, AQSH va Yaponiya istiqbolli hamkorlar safidan o'rin olmoqda. Shundan, AQSH, Italiya, Shvetsiya, Fransiya va Sloveniya davlatlari yangi yo'nalish sifatida qo'shilgan.

Yuqorida qayd etilgan mamlakatlar bilan hamkorlik doirasida ishchi kuchini savdo va xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, transport va logistika, qishloq xo'jaligi, sanoat va ishlab chiqarish, qurilish, payvandlash va metallga ishlov berish, yog'ochni qayta ishlash, neft-gaz va konchilik sohalariga jalb qilish nazarda tutilgan.

Joriy yilda 124,5 ming fuqaro xorijda yuqori daromadli ishlarga joylashtirilgan.

Xususan, o'tkazmalar hajmi Buyuk Britaniyadan 62 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlaridan 27 foizga (*Irlandiya 86 foiz, Litva 18 foiz, Niderlandiya 7 foiz*) hamda AQSHdan 19 foizga oshdi ([2-diagramma](#)).

2-diagramma. 2025-2026 yy. yanvar-iyun oylarida G'arb va Osiyoning ayrim mamlakatlaridan O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari, mln dollar



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Hisobot davrida jismoniy shaxslarga kelib tushgan mablag'larning 4,3 mlrd dollari (46,7 foizi) an'anaviy xalqaro pul o'tkazma tizimlari orqali (2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish 0,3 foiz), 4,8 mlrd dollari (51,7 foizi) xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan to'g'ri – P2P o'tkazmalar orqali (o'sish 32 foiz) hamda 142 mln dollari (1,6 foizi) bank o'tkazmasi – SWIFT orqali (kamayish 43 foiz) amalga oshirilgan.

Pul o'tkazmalari (remittances), asosan, shaxslarning o'z kelib chiqish iqtisodiyotidan boshqa iqtisodiyotlarga vaqtincha yoki doimiy ko'chib o'tishi natijasida uy xo'jaliklari tomonidan norezident institutsional birliklardan olinadigan daromadlar va boshqa resurslarni ifodalaydi. Jahon banki uslubiyatiga ko'ra, shaxsiy o'tkazma va mavsumiy mehnat muhojirlari daromadlari yig'indisidan iborat.

SWIFT - banklar, moliyaviy institutlar va yirik korporativ tashkilotlar transchegaraviy moliyaviy operatsiyalar bo'yicha o'zaro xavfsiz axborot almashish uchun foydalanadigan tarmoq.

An'anaviy bank o'tkazmalariga nisbatan P2P o'tkazmalari ("person-to-person" - mablag'larni naqd pul yoki chekdan foydalanmasdan, elektron vositalar orqali bir jismoniy shaxsdan boshqa jismoniy shaxsga to'g'ridan to'g'ri o'tkazish) ulushining jadal ortib borishi raqamli to'lov xizmatlarining ommalashuvi, mablag'larni tezkor va o'tkazish imkoniyati hamda tranzaksiya xarajatlarining nisbatan kamligi bilan izohlanadi.


Jahon banki ma'lumotiga ko'ra, 2025-yilning I choragida mobil o'tkazma xalqaro pul o'tkazmasini moliyalashtirishning eng arzon usuli bo'lib, o'rtacha xarajati 3,6 foizni tashkil etgan.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistondan chet elga **yuborilgan** pul o'tkazmalari hajmi o'tgan yilga nisbatan 8 foizga (100 mln doll) ko'payib, 1,3 mlrd dollarni tashkil qildi.


BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda dunyo bo'yicha xalqaro migrantlarning katta qismi yuqori daromadli mamlakatlarda jamlangan. So'nggi o'n yilda esa past va o'rta daromadli mamlakatlarga xalqaro pul o'tkazmalar hajmi 5,5 trln dollardan oshgan¹. 2015-yildan beri o'tkazmalar (*Xitoyni hisobga olmaganda*) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi moliyalashtirishning eng yirik manbalaridan biri hisoblanmoqda (3-diagramma).

Xususan, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra 2022-yildan boshlab rivojlanayotgan mamlakatlarga xalqaro pul o'tkazmalari to'g'ridan to'g'ri investitsiya (FDI) miqdoridan ham oshgan.

3-diagramma. To'g'ridan to'g'ri investitsiya va pul o'tkazmalari hajmi, mlrd dollar



4-diagramma. 2025-yilda davlatlar kesimida kelib tushgan mablag'lar, mlrd dollar



Manba: Jahon banki ma'lumotlari


¹Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD) ma'lumotlari

Hindistonga 2025-yilda 151 mlrd dollar miqdorida pul o'tkazmalari kelib tushgan bo'lib, dunyodagi eng yirik pul o'tkazmalari qabul qiluvchi mamlakat maqomini saqlab qoldi (4-diagramma).


Keyingi o'rinlarda Meksika, Filippin, Misr, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlar yirik tushumlarni qabul qilib olgan.

Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) hisobotida 2025-yil iqtisodiy va savdo siyosatidagi keskin noaniqliklarga qaramay, global mehnat bozori kutilganidan chidamliroq bo'lgani qayd etilgan. Global ishsizlik 4,9 foiz atrofida saqlanishi va 2026-yilda 186 million kishi ishsiz, ishlashni istagan, biroq ish topmagan yoki mehnat bozoridan vaqtincha chetda qolganlarni qamrab oluvchi kengroq "ish o'rni taqchilligi" (jobs gap) esa 408 million kishiga yetishi prognoz qilingan (5-diagramma).

5-diagramma. Ishsizlik va ish o'rinlari taqchilligi



6-diagramma. Xalqaro mehnat bozoridagi ishchilar soni



Manba: Xalqaro mehnat tashkiloti hisoboti

Mehnat yoshidagi aholi dinamikasi Markaziy Osiyoda yillik iqtisodiy o'sishga taxminan 1 foiz punkt ijobiy hissa qo'shishi mumkin, Shimoliy Yevropada esa ushbu demografik komponent o'sishni qariyb 0,7 foiz punktga pasaytiruvchi omilga aylanishi mumkin. Bu tafovut Markaziy Osiyodan Yevropa va boshqa ishchi kuchi qarib borayotgan iqtisodiyotlarga mehnat koridorlari kengayishi uchun iqtisodiy zamin yaratishini anglatadi².

Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)ning xalqaro migrant ishchilar bo'yicha mavjud eng so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda butun dunyo bo'yicha 167,7 million migrant mehnat bozorida ishtirok etishi, ularning 68,4 foizi yuqori daromadli mamlakatlarda bandligini qayd etiladi. Migrantlarning 68,4 foizi xizmatlar, 24,3 foizi sanoat va 7,4 foizi qishloq xo'jaligida ishlaydi (6-diagramma).

2025-yilda yoshlar ishsizligi 12,4 foizga, ta'limda ham, bandlikda ham bo'lmagan yoshlar ulushi (NEET – Not in Education, Employment, or Training) 20 foizga yetgan. Bu 257 million yoshning ta'lim, ko'nikma va ish tajribasini shakllantirish imkoniyatidan chetda qolganini anglatadi. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining 2027-yilga doir prognozlariga ko'ra, yoshlar o'rtasidagi NEET darajasi 20,2 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Mazkur ko'rsatkich xotin-qizlar orasida 27,7 foizga, past va o'rta daromadli mamlakatlardagi xotin-qizlar o'rtasida esa 34 foizga yetishi prognoz qilingan.

²ILO, Demographic change in Europe and Central Asia, April / 2025

Mazkur tendensiyalardan kelib chiqib, O'zbekistonda an'anaviy mehnat migratsiyasi bilan bir qatorda yoshlarning til, kasbiy va raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, ularni masofadan xizmatlar eksportiga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston ham hozirgi kunda xalqaro mehnat migratsiyasi global yo'nalishlariga integratsiyalashib, mehnat muhojirlari an'anaviy davlatlar (*Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya, Turkiya*) bilan bir qatorda Yevropa va Osiyo davlatlariga yo'nalmoqda.

Shuningdek, Migratsiya agentligining ma'lumotiga ko'ra, 40 ga yaqin davlatda taxminan 1,4 mln nafar fuqarolarimiz mehnat qilmoqda.

Davlatlar: Rossiyada – 834,2 ming nafar, Qozog'istonda – 84,4 ming nafar, Turkiyada – 72,1 ming nafar, Janubiy Koreyada – 46,4 ming nafar, Yevropa mintaqasi davlatlari – 258 ming nafar, boshqa davlatlarda – 97,7 ming nafar.


Shu bilan birga, xorijiy davlatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan mehnat migrantlarining 398,9 ming nafari (28,6 foiz) xotin-qizlarni va 402,1 ming nafari (28,9 foiz) yoshlarni tashkil etadi.

MDH davlatlarining ulushi 29 foizga kamayib, Yevropa mintaqasida 42 foizga, Sharqiy Osiyo mintaqasida 26 foizga ortgan.

Migratsiya qarorlarining asosiy iqtisodiy drayverlaridan biri qabul qiluvchi va yuboruvchi mamlakatlar o'rtasidagi ish haqi farqidir.

Xalqaro mehnat tashkiloti (*ILO*) ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori o'rtacha ish haqi darajalari Yevropa (*Lyuksemburg, Belgiya, Niderlandiya, Shveytsariya va boshqalar*), Shimoliy Amerika (*Kanada va AQSH*), shuningdek, Osiyo davlatlarida minimum ish haqlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Yaponiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda qayd etilgan (*7-diagramma*).

7-diagramma. 2024-2025-yillarda mamlakatlardagi o'rtacha oylik ish haqlari to'g'risida (PPP\$), dollar ekv.



Manba: Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlari

Shu bilan birga, kelgusida tashqi mehnat migratsiyasini tashkiliy asosda rivojlantirishda jahon mehnat bozoridagi demografik va tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda, ishchi kuchiga talab yuqori bo'lishi kutilayotgan yangi geografik va kasbiy yo'nalishlarni inobatga olish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston uchun kelajakda istiqbolli mehnat bozori

2030-yilgacha Yevropa davlatlarida aholining keksayishi va **“mehnatga layoqatli yosh”** dagi aholi ulushining qisqarishi mehnat bozori uchun asosiy tarkibiy muammolardan biriga aylanishi kutilmoqda. Mazkur hududda ishchi kuchi taqchilligi 7,5-10,5 mln kishigacha baholanmoqda³.

Natijada, muhandislik, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, infratuzilma qurilishi, transport va logistika, agrar soha, tibbiyot, axborot texnologiyalari, turizm hamda xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kuchiga talabning oshishi kutilmoqda.

Misol uchun, Germaniyada har yili kamida 400 ming malakali migrant kirib kelmasa, YAIM o'sishiga salbiy ta'sir qiladi. Nordik davlatlar ekologik toza texnologiyalar markaziga aylanmoqda, yashil metallurgiya, shamol energetikasi, axborot texnologiyalari sohasida talab ortib boradi⁴.

Tibbiyot va ijtimoiy ta'minot sohasi (2026-2030-yillar)

AQSH, Yevropa davlatlari, xususan Germaniya, Avstriya va Buyuk Britaniya, shuningdek Osiyoning Yaponiya va Koreya kabi mamlakatlarida aholining keksayishi natijasida tibbiyot, parvarishlash va ijtimoiy xizmatlar sohalarida ishchi kuchiga ehtiyoj eng yuqori yo'nalishlardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Germaniya Xususiy tibbiy sug'urta ilmiy instituti (WIP) prognoziga ko'ra, 2030-yilga kelib Germaniyada parvarishga muhtoj aholi soni 5,7 mln nafarga yetishi, buning natijasida sog'liqni saqlash va parvarishlash tizimida 500 ming nafargacha qo'shimcha xodimga, Buyuk Britaniyada esa 90 ming nafarga yaqin qo'shimcha parvarish xodimga ehtiyoj yuzaga kelishi mumkin (Skills England tashkiloti).

Yaponiyada parvarishlash, qishloq xo'jaligi va qurilish sohalarida 6-7 mln nafar, Janubiy Koreyada esa kemasozlik, metallga ishlov berish, elektronika va sanoat tarmoqlarida 1,2-1,5 mln nafar ishchi kuchi taqchilligi yuzaga kelishi prognoz qilingan.

Yaqin istiqbolda ushbu davlatlarda katta yoshdagi aholi ehtiyojlariga yo'naltirilgan maxsus tibbiy xizmatlar, jumladan geriatriya, uyda parvarishlash, shuningdek, maxsus transport, robototexnika hamda “aqlli uy” tizimlarini boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida mutaxassislarga talab ortib boradi.

“Yashil” energetika va ekologiya (2026-2030-yillar)

Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan Germaniya va Daniya, shuningdek Yaqin Sharq mamlakatlarida 2030 yilgacha qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadal rivojlantirish va iqlim o'zgarishiga moslashishga qaratilgan yirik loyihalarning amalga oshirilishi energetika, muhandislik, ekspluatatsiya va ekologik xizmatlar sohalarida malakali kadrlarga talabni sezilarli oshiradi.

Germaniyada quyosh panellari va shamol turbinalarini o'rnatish, texnik, motorist, mexaniklar, ekologiya muhandislari, elektr va avtonom transportni ekpluatatsiya qilish yo'nalishida 300 ming mutaxassis yetishmovchiligi prognoz qilingan⁵.

³Federal bandlik agentligi huzuridagi Mehnat bozorini o'rganish instituti va Yevropa komissiyasi ma'lumotlari asosida

⁴Demographic Aging and Long-Run Economic Growth in Germany, 2024

⁵DIHK - Germaniya sanoat va savdo palatasi buyurtmasiga asosan tayyorlangan tadqiqot (<https://www.dihk.de>)

Fors va Arab ko'rfazi davlatlari yo'nalishi

Fors va Arab ko'rfazi davlatlarida "Vision 2030" kabi milliy rivojlanish dasturlari doirasida iqtisodiyotni neftga qaramlikdan bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish, turizm, qurilish, transport, sog'liqni saqlash va xizmatlar sohalarini rivojlantirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotiga ko'ra, ushbu jarayonlar natijasida Saudiya Arabistonida 1,5 - 2 mln nafar, Birlashgan Arab Amirliklarida esa 1 mln nafar qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj shakllanishi mumkin⁶.

Saudiya Arabistonida yirik infratuzilma va turizm loyihalarini amalga oshirishda qurilish va texnik mutaxassislarga, sog'liqni saqlash sohasida o'rta bo'g'in tibbiyot xodimlariga talab ortishi, Birlashgan Arab Amirliklarida esa mehmonxona va restoran ishi, turizm, servis, aviatsiya va logistika sohalarida malakali mutaxassislarga ehtiyoj yuqori bo'lib qolishi prognoz qilinmoqda.


II. Jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash operatsiyalari

2026-yilning I-yarim yilligida banklar hamda jismoniy shaxslar o'rtasidagi chet el valyutasi oldi-sotdi operatsiyalari aylanmasining umumiy hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 31 foizga (4,5 mlrd doll) ko'payib, 19,1 mlrd dollarni tashkil etdi.

Mazkur davrda banklar tomonidan jismoniy shaxslardan 12,3 mlrd dollar miqdoridagi yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 35 foizga ko'p chet el valyutasi xarid qilingan.

Banklar tomonidan jismoniy shaxslarga **sotilgan** chet el valyutasi hajmi 2025-yil mos davriga nisbatan 26 foizga o'sib, 6,8 mlrd dollarga yetdi (8-diagramma).

8-diagramma. 2025-2026 yy. yanvar-iyun oylarida valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmlari, mln dollar




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Valyuta oldi-sotdi operatsiyalarining 59 foizi yoki 11,2 mlrd dollari (2025-yil I yarim yillikka nisbatan o'sish 33 foiz) valyuta ayirboshlash shoxobchalari, 39 foizi yoki 7,5 mlrd dollari (o'sish 27 foiz) masofaviy xizmat ko'rsatish (online) va qolgan 404 mln dollari (o'sish 61 foiz) 24/7 rejimda faoliyat ko'rsatuvchi bankomatlar orqali amalga oshirilgan (9-diagramma).

⁶<https://gulfbusiness.com/en/2025/jobs/uae-to-add-over-1-million-jobs-by-2030-report/>

Masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari va 24/7 rejimda ishlovchi valyuta bankomatlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar ulushining izchil o'sishi aholi uchun raqamli bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining kengayib borayotganini anglatadi.


9-diagramma. 2025-2026 yy. yanvar-iyun oylarida valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmlari, mln dollar




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mazkur tendensiya xalqaro amaliyotga ham mos keladi. Xususan, raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi operatsiyalarni sutka davomida amalga oshirish imkoniyatini yaratish bilan birga, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur holatni valyuta ayirboshlash kanallari ulushining o'zgarishida ham ko'rish mumkin.

10-diagramma. Masofaviy xizmat ko'rsatish (online) kanali, foiz



11-diagramma. Valyuta ayirboshlash shoxobchalari kanali, foiz



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Banklar tomonidan jismoniy shaxslardan **xarid qilingan** chet el valyutasi hajmi ularga **sotilgan** xorijiy valyuta hajmiga nisbatan 5,5 mlrd dollarga ko'p bo'ldi (2025 yilning mos davrida mazkur ko'rsatkich 3,7 mlrd dollarni tashkil etgan).

Jismoniy shaxslar segmentida shakllangan sof valyuta taklifining jami valyuta ayirboshlash aylanmasiga nisbati 2025-yilning I-yarim yilligidagi 26 foizdan 2026-yilning mos davrida 29 foizga oshdi. Bu aholi operatsiyalarining ichki valyuta bozorida sof taklifni shakllantirishdagi roli ortganini ko'rsatadi.